

MARIYA MONTESSORI TADQIQOTLARINI BOSHLANG'ICH TA'LIMDA AMALIY QO'LLASH TAJRIBALARI

Xazratqulov Muttalib Rashidovich

*Toshkent kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali
Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi
kafedrası o'qituvchisi falsafa fanlari doktori*

Mamatkulova Sitara Davronkulovna

*Toshkent kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali
Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va
metodikasi kafedrası magistrant*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Italiyalik shifokor va pedagog ayol Mariya Montessorining ta'limga oid texnologiyalari, olib borgan izlanish va tadqiqotlarning asosiy tamoyillari va ularning ta'lim jarayondagi ahamiyati tahlil etilgan. M.Montessori metodlari bolalarning mustaqil rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, ta'lim jarayonida o'z - o'zini o'rganish va anglash hamda erkin harakat qilish imkoniyatlarini beradi. Shu bilan birgalikda zamonaviy ta'lim jarayonida bu ta'limotning qo'llanilishi ta'lim samaradorligini va sifatini ko'tarish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Montessori ta'limi, pedagogik texnologiyalar, ta'lim texnologiyalari, mustaqil o'rganish.

Kirish: Mariya Montessori- (1870-1952) ta'lim sohasida inqilobiy o'zgarishlar yaratgan italiyalik shifokor va pedagogdir. Montessorining ta'lim sohasiga kirib kelishiga aqliy va jismoniy rivojlanishdan orqada qolgan bolalarning hissiyotari sabab bo'lgan. Uning o'ziga xos metodlari bolalar ta'limida yangicha yondashuvlarni namoyish etib, bolalarning o'z-o'zini rivojlantirishini, mustaqil ishlashlarni qo'llab -quvvatlaydi. Bundan tashqari, ularni qiziqishlari asosida, o'qitishni ham tadbiq etadi. Montessori ta'limining asosiy tamoyili - bolalarni mustaqil fikrlashga, o'z qobiliyatlarini rivojlantirishga va ta'lim jarayonida faol jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. Montessori ta'limida bolalarning rivojlanishida muhim vosita sifatida sensor (sezgilar) materiallar ham nazarda tutilgan. O'quvchilarning sezgi organlarini rivojlantirish va atrof-muhitni tushunib idrok etishlari uchun mo'ljallangan bu metodlar bolalarning ongli faoliyatida juda samarali natijalarni ko'rsatgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday metodlar qo'llanilgan aksariyat o'quvchilarda ularning diqqatini, tasavvurlarini va analitik fikrlashlarini rivojlantirishga erishilganligini kuzatishimiz mumkin. Bugungi kunda ushbu texnologiyalardan foydalanish samarasi yuqori bo'lganligi sababli ko'plab maktablar va ta'lim muassasalarida ham ulardan



foydalanish keng yo'lga qo'yilgan. Ushbu sensorli metodlarning afzalligi bolalarning faoliyatida miqdorni baholashdan ko'ra sifatni baholashga ko'proq e'tibor qaratadi. Montessori o'zining ta'lim sohasidagi texnologiyalarida eng avvalo insonparvarlik, muloqot mahoratiga katta e'tibor qaratadi. Shu bilan birga shaxsiy yondashuv, oila pedagogikasining qo'shimcha imkoniyatlari hamda o'quv faoliyatiga ham alohida ahamiyat beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sensor metodlarni qo'llash tajribalari shuni ko'rsatmoqdaki, sensor materiallardan ko'proq foydalangan o'quvchilarda ijodiy qarashlar, fikrlash doirasining kengayishi, mustaqil tahlil qilishga o'rganish kabi ko'plab yaxshi natijalarni kuzatish mumkin bo'ldi. Jumladan:

7. Ranglarni ajratish. Bu materiallar yordamida bolalar turli ranglarni ajratishlari va farqlashlari shu bilan birgalikda ularni qayerlarda uchratish haqida fikr bildirib, tahlil qilishni o'rganadilar. Ularni to'g'ri tartibda joylashirish, nomlash va berilgan tasvirlarni tegishli ranglarga bo'yash orqali ko'zlangan natijalarga erishish mumkin bo'ladi.

8. Shakl va o'lchovlar. Bolalarda turli geometrik shakllarni farqlashda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni oldini olish maqsadida, ushbu sensorli metodlardan foydalanish nazarsamarasi shundaki, shakl va o'lchovlarni aniqlash uchun materiallar masalan, shaklni to'ldirish maqsadida kesilgan bo'shiqlardan foydalanish hamda o'lchovli bloklar yordamida hajm o'lchov birliklarini o'rganish.

9. Tovushlarni ajratish. Bu metod yordamida bolada tinglash hamda faqlash qobiliyatini shakllantirib olamiz. Masalan, bo'sh idish yoki to'ldirilgan idishlardan chiqadigan tovushlarni ajratish, qaysi idshdan qanday tovush chiqayotganligini sezgi va his qilish orqali anglashga o'rgatadi.

10. Ushlab ko'rish va his qilish. O'quvchilar turli material (yumshoq, qattiq, silliq, tuz, qog'oz, va boshqa) lar bilan ishlash orqali ushlab ko'rish va his qilish tuygularini o'rgandilar. Bu metod yordamida ular jismlarning bir –biridan farqi hamda shaklini tushunib oldilar.

11. Hajm va og'irlik. Bolalar turli hajmli buyumlar bilan ishlash davomida ularni ajratish va o'zlarini fikrlarini shakllantirishga o'rgandilar. Masalan, og'ir va engil jismlarning farqlari va ular nimaning hisobidan ekanligini anglashlari hamda ularni solishtirish orqali hajm va og'irlik tushunchalarini o'zlashtirdilar.

12. Tafakkur va analitik fikrlash. Montessori metodlari amaliy bajarish, o'rganish va yangi kashfiyotlarga urg'u berish bilan ajralib turadi. Bu metodik usullar yordamida bolalar o'z tajribalarini tahlil qilib, fikrlarini shakllantirib, ularni izohlab berishga o'rgandilar.

Metodologiya: Bolalar ta'lim jarayonining eng muhim



harakatlanuvchi kuchi hisoblanishadi. Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi va ularda tafakkurni o'sish jarayonlarini yo'lga qo'yish, mustaqil fikrlashlarini, o'z qarashlarini shakllantirish maqsadida nafaqat o'qituvchilar balki ota-onalar ham Mariya Montessorining ta'limiy texnologiyalaridan foydalanishlarini farzandlari bilan yuzaga keladigan muammolarni bartaraf qilish va ularni . Bugungi davrda o'quvchilar bilan ishlashda yuzaga keladigan muammolarning sababi bolalarda erkinlik va mustaqil harakatning kamligida deb hisoblayman.

Natijalar: Montessori maktablarining ahamiyatli va natija beradigan tomonlariga to'xtalib o'tamiz.

- Bolaning faolligi muhim hisoblanib, ularning o'sib ulg'ayishida kattalarning aralashuvi keying o'rinlarda bo'lishini aytib o'tgan;
- Bola tanlovni o'zi qilishi hamda erkin harakatni yo'lga qo'yishini uqtirgan;
- Bolaning o'zi qaror chiqarishiga imkon berish;
- Bolalar bilan mashg'ulotlar maxsus hozirlangan muhitda o'tilishga ahamiyat berish;
- Xato qilishlariga, qayta bajarishlariga va uni to'g'irlashlariga imkon berish;
- Kattalarning burchi -bolalarda qiziqish uyg'ota olishi, so'ngra bolalarning o'zi rivojlanib ketaveradi;
- Bolalarda iste'dodni rivojlantirish uchun erkin fikrlash, mustaqil harakat va tuyg'u imkonini berish ;
- Tabiat bilan do'stlashtirish va unga mehr berishni o'rgatish;
- Bolani tanqid qilmaslik, qandaydir ta'qiq va cheklov bilan bog'lamang.

Muhokama: Montessori har bir bolani iqtidorli hisoblab, faqatgina ularga beriladigan e'tibor va diqqatni kamligi natijasida rivojlanmay qolganligini ta'kidlab o'tgan. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning zerikishini oldini olish maqsadida ularni hissiy rivojlantirishga undash, kitoblarni shunchaki o'qibgina qolmasdan balki o'yin va taqdimotlar orqali tushuntirish va o'rgatishni maqsad qilgan. Yana shu masalaga katta e'tibor berilganki, o'quvchilar o'z yumushlarini batartib bajarishlari, mustaqil kiyinib yechinishlari, chang artish, supur-sidir, gullarga qarash hamda ularni mustaqil ishlashga yo'naltirish biz o'ylaganimizdan ham ko'proq natijalar berishi va ularning yashirin qobiliyatlarini rivojlanishiga sabab bo'lishini ta'kidlab o'tgan. Bu borada bizning ajdodlarimiz ham tarixda o'z fikrlarni

Boshlang'ich sinf o'quvchilarda Montessorining ta'limiy metodlarini o'rganish jarayonida buyuk bobokalonlarimizning



qarashlariga ham to'xtalib o'tishni joiz topdik. Abdulla Avloniy ham bolalar ta'lim va tarbiyasiga doir ko'plab pedagogik qarashlari nafaqat o'z zamonasi balki hozirgi kunga qadar ahamyatini yo'qotmagan.

Xulosa: Montessorining ta'limiy texnologiyalari bilan birga u tomonidan ochilgan maktablarning ham natijalari yuqori bo'lganigini ta'kidlab o'tishimiz mumkin. Uning metodlari va ta'limiy texnologiyalari zamonaviy pedagogikada muhim o'rin egallaydi. Dastlab uning qarashlari va bolalarning jismoniy muhit va sog'ligiga qaratilgan bo'lsa, keyinchalik bu tamoyillar bolalarni ta'lim muhitiga moslashtirish va ular uchun qulaylik yaratishni targ'ib etadi.

Mariya Montessori pedagogikasining asosiy tamoyillaridan biri bu "bolaga ergashishdir" deb ta'kidlaganida ham yetarlicha jon bor. Biz bolalarni tinglay olsak, ular bilan shug'ullana olsak, qarashlarini hurmat qilib, qobiliyatlarini inobatga olgan holda imkoniyat va sharoitlar yaratib berolsak, qiziqishlari tomon to'g'ri yo'naltira olsak ulardan yuqori natijalar olisimiz mumkin bo'ladi.

Shunday qilib Montessori bolalar ruhiyatining xususiyatlariga, ularning kattalar ongidan farqiga diqqat bilan e'tibor berishga chaqiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yohud axloq" Toshkent 1992 y
2. Daminova M., Adambyekova T. "O'yin mashg'ulotlari" Toshkent "O'qituvchi" 1993 y
3. Yu.I.Fausik. "Montessori bolalar bog'chasi" T: "O'qituvchi" 2008 y
4. Raxima Mavlyanova, Nargiz Raxmankulova Toshkent "Voriz nashriyot" 2013 y
5. "Montessori metodikasidan namunalar" metodik tavsiya Samarqand 2004 y



